

XALQ QO'SHIQLARI - MILLIY MA'NAVIY MEROS

Norboyeva Oydin

Termiz davlat universiteti talabasi

Ximmatova Go'zal

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri bo'lgan xalq qo'shiqlarining

janr xususiyatlari, mazmuniy va badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Xalq qo'shiqlarining inson ruhiyati, milliy qadriyatlar va ajdodlar o'gitlarini aks etishdagi roli yoritiladi. Shuningdek

xalq qo'shiqlari orqali xalqning tarixiy xotirasi va urf-odatlarini haqida fikr yuritiladi.

Аннотация:

В данной статье анализируются жанровые особенности, содержательные и художественные аспекты народных песен, являющихся специфическим жанром узбекского устного народного творчества. Освещается роль народных песен в отражении психологии человека, национальных ценностей и наставлений предков. Также рассматриваются вопросы изучения исторической памяти, традиций и обычаев народа через призму народных

Ключевые слова:

народные песни, национальное наследие, фольклор, духовность, жанровые особенности, устное народное творчество, ценности, обрядовые песни, лирический жанр, художественный образ, воспитание, самосознание, народная мудрость, духовное богатство, народная музыка, наследие предков, средство воспитания, устная традиция, древние песни, жизнь народа, народное художественное мышление, алла (колыбельная), улан, лапар, терма.

Kalit so'zlar :

Xalq qo'shiqlari, milliy meros, folklor, ma'naviyat, janr xususiyatlari, og'zaki ijod, qadriyatlar, marosim qo'shiqlari, lirik janr, badiiy tasvir, tarbiya, o'zlikni anglash, xalq donishmandligi, ma'naviy boylik, xalq musiqasi, ajdodlar merosi, tarbiya vositasi, og'zaki an'ana, qadimiy qo'shiqlar, xalq hayoti, xalq badiiy tafakkuri, alla, o'lan, lapar, terma.

Annotation:

This article analyzes the genre characteristics, content, and artistic aspects of folk songs as a unique genre of Uzbek oral folk art. It highlights the role of folk songs in reflecting human psychology, national values, and ancestral teachings. Furthermore, the article explores the historical memory, traditions, and customs of the people through the medium of folk songs.

Keywords:

folk songs, national heritage, folklore, spirituality, genre characteristics, oral tradition, values, ritual songs, lyrical genre, artistic depiction, education, self-awareness, folk wisdom, spiritual wealth, folk music, ancestral heritage, means of education, oral tradition, ancient songs, folk life, folk artistic thinking, alla (lullaby), ulan, lapar, terma.

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida shakllanib kelgan boy madaniy merosi bo'lib , xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan. Ushbu ulkan merosning eng qadimiy janrlaridan biri xalq qo'shiqlari hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari shunchaki badiiy matn emas , balki millatning ruhiyati , orzu - umidlari , quvonch va tashvishlari , shuningdek , ijtimoiy - tarixiy hayotining ko'zgusidir .Xalq qo'shiqlari og'izdan og'izga o'tish asosida xilma - xil variantlarda el orasida keng tarqalgan xalq she'ri qo'shiq hisoblanadi. Qo'shiq atamasi "Qo'shmoq " fe'li o'zagidan yasalgan bo'lib , satrga satrni qo'shib aytish va kuylash ma'nolarini anglatadi. Xalq qo'shig'i kuy bilan birga tug'iladi va shu xususiyati bilan yozma adabiyotdagi she'riyatdan farq qiladi. Qolaversa , xalq qo'shiqlari raqslar bilan ham yaxlitlashgan va kuylanishga muvofiqlashgani bilan ajralib turadi.Hozirgi kunda milliy o'zlikni saqlab qolishda xalq qo'shiqlarining o'rni beqiyosdir. Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi va rivojida mifo - poetik tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlarining asosiy salmoqli hissasini badiiy jihatdan yuksak ohangdorlikka ega an'anaviy qo'shiqlarni tashkil etadi. Xalq qo'shiqlari xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Xalq qo'shiqlari haqida Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Qo'shiq " ning tor ma'noda janr tushunchasiga egaligiga alohida diqqat qilib yozadi : " Yana qo'shiqdurkim , otgushtak ta'sirida shoyidur va ba'zi advor kutubida ul usul bo'lubdur va ul surud a'robning teva surur hudilari vazni bila madadi musammani solimda voqe bo'lur, aning asli bu na'vdurkim bayt :

Vahki ul oy hasrati dardi dog'i firqati

Ham erur jonimga o't ham hayotim ofati "

Navoiy bunda kuy bastalangan vale aruzda bitilgan xalq qo'shig'ini ko'zda tutadi .Hozir bunday hodisa hodisa " ashula " istilohi ostida qo'shiqdan farq qilinadi va qo'shiqning ichki bir xili sifatida tushunildi. Xalq qo'shiqlari ona Vatanga muhabbati , mehnatsevarligi , sadoqati , insoniylik fazilatlarini , shuningdek , turmushdagi quvonch va tashvishlari samimiy va sodda ohanglarda aks etadi .Shu bois xalq qo'shiqlari nafaqat musiqiy meros , balki milliy

o‘zlikni anglash ma’naviy tarbiya va madaniy uzluksizlikni ta’minlashda muhim manba hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlari uzoq tarixga ega hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlari muallifsiz bo‘lib, jamoa ijodi mahsuli sanaladi va asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib qoladi. Xalq qo‘shiqlari mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Ular :

1. Mehnat qo‘shiqlari ,
 2. Marosim qo‘shiqlari,
 3. Lirik (ishqiy) qo‘shiqlari,
 4. Tarixiy qo‘shiqlar
- kabi turlarga bo‘linadi .

Mehnat qo‘shiqlari mazmunan mehnat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar mehnat qo‘shiqlari deb yuritiladi. Mehnat qo‘shiqlari o‘ziga xos ohangda so‘zsiz ijro etiladi. Mehnat qo‘shiqlari xalq she’riyatining eng qadimiy shakllaridan biridir .Ilk namunalaridan biri Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk " kitobi orqali bizgacha yetib kelgan . Bu asardagi o‘nlab qo‘shiqlarni olim o‘n birinchi asrda yozib olgan . Mehnat qo‘shiqlari mehnat jarayonida ish qilayotgan odamning sergakligini oshirish uchun turli xitoblarda aytilgan . Mehnat qo‘shiqlarini qulayroq o‘rganish uchun quyidagi turlarga bo‘linadi :

- 1 . Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar
- 2 . Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar
- 3 . Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar

Qo‘sh haydash paytida dehqonning mehnatini qanday yengillashtirish mumkin degan savol paydo bo‘ladi. Savolga ikki hil javob berish mumkin. Birinchidan, inson tabiatida bir xil zerikarli ish qilayotgan paytda nimanidir aytib turish unga madad bag‘ishlaydi . Ikkinchidan , dehqon mazkur to‘rtlikni aytishi hisoblanadi .Masalan : Surxondaryo shevasida

Ho‘kizginam bo‘yniginang ezildi .

Ko‘zginangdan qator yoshlar tizildi .

Bo‘yinturuq bilan omoch tortmasang ,

Seni bilan menga go‘rlar qazildi .

Tarzida aytilsa , Xorazm shevasida

Ho‘kizginam, bo‘yniginnang ezildi,

Go‘zginangdan qator yoshlar tizildi,

Bo‘yinturuq bilan omoch tortmasang,

Sani bilan menga go‘rlar qazildi.

Shaklida aytiladi chunki, Surxondaryoda asosan qipchoq va qarluq shevalari aralashmasi ustun. Shuning uchun "ho‘kizginam", "bo‘yniginnang" kabi so‘zlarda "g" va "ng" tovushlari (burun tovushlari) ko‘p qo‘llaniladi, bu esa voha dehqonlarining nutqiga xosdir. Xorazmda esa o‘g‘uz shevasi hukmron. U yerda bu satrlar biroz yumshoqroq va musiqiy ohangda

aytiladi. Masalan, "go‘rlar" so‘zi o‘rniga "mozorlar" yoki boshqa sinonimlar ishlatilishi, so‘z oxiridagi qo‘shimchalar esa o‘g‘uz shevasiga moslab o‘zgarishi mumkin. Surxondaryo tog‘li va keng dehqonchilik hududi bo‘lgani uchun qo‘shiqda mehnatning og‘irligiga urg‘u berilsa, Xorazmda vohada daryo bo‘yi dehqonchiligi rivojlangani sababli matn variantlarida o‘ziga xos mahalliy terminlar (masalan, sug‘orish bilan bog‘liq so‘zlar) qo‘shilib ketgan bo‘lishi mumkin. Qo‘shiqning asosi bitta bo‘lsa-da, har bir hudud uni o‘zining "tili" va ruhiyatiga moslab olgan.

Bu mazmundagi to‘rtlik ijrosida ham aytuvchining chuqur ruhiy ichki kechinmalari ifodalangan. His , tuyg‘u o‘rin olgan qo‘shiqlar har qanday vaziyatda ham kishi kayfiyatiga dalda beradi , mehnat jarayonini nisbatan yengillashtiradi . Yer haydalib , don sochilganidan so‘ng yetilgan hosilni o‘rish boshlanadi . O‘rim o‘rishda dehqonning qo‘shiq aytishi dehqonga yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi . Shuning uchun o‘rim qo‘shiqlari qo‘sh qo‘shish paytida aytiladigan to‘rtliklardan o‘ynoqiligi nisbatan sho‘xligi bilan farq qiladi . Surxondaryoda :

O‘rog‘im olmos ,

O‘rishdan qolmas ,

Sira ham tolmas ,

O‘rmasam bo‘lmas .

Shu tarzda aytilsa , Buxoroda

O‘rog‘im olmos,

O‘rishdan qolmas,

Sira ham tolmas,

O‘rmasam bo‘lmas.

Shaklida aytiladi. Surxondaryoda "o‘rish" so‘zi qattiqroq, "olmas" so‘zi esa "olmos" kabi "o‘tovushiga moyil aytiladi. Qo‘shiq shiddatli va tez aytiladi. Buxoroda esa "olmos" so‘zining oxiridagi "s" yoki ba'zi so‘zlar oxiri musiqiy cho‘ziqlik bilan tugashi mumkin. Ohang vazmin va mungliroq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan sahifalarda dehqon ish qurolini maqtaydi , undan qoniqayotganini izhor qiladi . O‘roqning olmos kabi o‘tkir ekanida o‘zining charxlash mahoratini maqtash ohangi ham yo‘q emas . O‘rni kelganda dehqon bug‘doyga ham murojat qiladi . Bug‘doydan to‘p bo‘lib turishini so‘raydi . Shunda uni o‘rish osonroq bo‘lishini takidlaydi.

Mavsum deganda yil fasllari nazarda tutildi . Mavsum qo‘shiqlari qish , bahor , yoz , kuz fasllari bilan bog‘liq . Marosim qo‘shiqlari esa diniy yoki an’anaviy urf odatlar bilan o‘tkaziladigan tadbir , yig‘im demakdir . Mavsumiy marosim qo‘shiqlari turli xil marosimlarda aytiladi . Marosim qo‘shiqlariga sust xotin , sumalak qo‘shiqlari , alla , Navro‘z qo‘shiqlari , boychechak , beshik to‘y kabi qo‘shiqlarni misol qilib olishimiz mumkin . Bahor

faslida turna , boychechak , sumalak qo‘shiqlarini aytish odat bo‘lgan .Bunga misol qilib :
Surxondaryoda

Adirlar to‘la chechak ,

Biz keldik ucha - ucha ,

Boychechagim , boychechak ,

Kutib oling , hodisa chechak .

Qo‘shig‘ini misol qilishimiz mumkin .

Tarzida aytiladi . Samarqand shevasida esa

Adirlar to‘la chechak,

Biz keldik guldasta bog‘lab.

Boychechagim, boychechak,

Kutib oling, boychechak!

Shaklida aytiladi.Surxondaryoda do‘mbira usulida shiddatli,"choychak"so‘zi bilan"hayqiriq"ohangida, Samarqandda esa bog‘dorchilik madaniyati ta‘sirida"bog‘","guldasta"so‘zlari bilan mayin va lirik aytiladi. Bu farqlar hududlarning shevasi, turmush tarzi va musiqiy merosi (Surxonda do‘mbira, Samarqandda ohangdor asboblar) bilan bog‘liq.

Lirik qo‘shiqlar deganda ishq - muhabbat izhor etilgan to‘rliklarni nazarda tutish mumkin. Lirik qo‘shiqlarning asosiy vazifasi muhabbat tuyg‘ularini ifodalash bilan belgilanadi . Lirik qo‘shiqlarda ichki kechinmalar va ishq - muhabbat dardiga yo‘liqishdir . Lirik qo‘shiqlarni o‘rganish ularni faqat muhabbat tuyg‘usini yurak qon tomirlaridan his qilgan insongina yaratishi mumkin . Muhabbat savdosi yechimsiz holatda insonni qiynaydi . Masalan:

Qiziz gulni ekasanda , ketasan .

Parvarish qilmasang , ekib netasan ?

Yo‘liga intizor qilgan qorako‘z ,

Oxir mening bu boshimga yetasan

Misralarida inson taqdiri va qismati aks etganiga hech kim shubha qilmasa kerak. Shu azob unga shukuh , baxt bag‘ishlayotganini ham aytish mumkin . Chunki haqiqiy insongina bunday tuyg‘ularga egalik qilishi mumkin.

Tarixiy qo‘shiqlar deganda tarixiy shaxs yoki voqealar tasvirlangan she‘riy asar tarixiy qo‘shiq sanaladi . Tarixiy qo‘shiqlarga Mahmud Qoshg‘ariyning " Devonu lug‘atit turk " asaridagi Alp Er

to‘nga marsiyasini kiritish mumkin . Marsiyada asar qahramonining ismi , u qilgan yaxshiliklar real hayotiy aniqlik bilan aks etgan . Qadimda Namoz va Niyozga bag‘ishlab qo‘shiqlar vujudga kelgan. Keyinchlaik Isfondiyor va uning amaldorlari , kirdikorlarini fosh etuvchi to‘rtlik yaratilgan : Isfondiyor xon bo‘ldi ,

Bag‘rimiz to‘la qon bo‘ldi .

Azroildan kam emas ,

Olajagi jon bo‘ldi .

Bu to‘rtlikda xonga bo‘lgan g‘zab va nafrat ifodalangan . Bu holat yutimiz tarixiga oid turli yo‘nalishdagi tarixiy voqealarning ko‘p ro‘y berganiga bog‘liqdir . Tarixiy qo‘shiqlar aniq voqea hodisa yoki aniq qahramon ishtirok etgan tarixiy davr haqida yaratilgan asar hisoblanadi. Qadimda qo‘shiq yashirincha yoki tor doiralarda, juda emotsional, dardli va isyonkor ruhda aytilgan. Uning maqsadi odamlarni birlashtirish va xonga nisbatan nafratni ifodalash bo‘lgan . Hozirgi kunda u siyosiy norozilik emas, balki badiiy asar sifatida sahnalarda, folklor dastalari tomonidan yoki akademik o‘rganish jarayonida aytiladi. Ohang ko‘proq professional musiqiy sayqal olgan, dramatik va teatrlashtirilgan shaklda aytilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki , o‘zbek xalq qo'shiqlari - bu nafaqat musiqiy meros , balki xalq donishmandligining , hayotiy tajribasining , axloqiy me'yoriy qarashlarining aksidir . Ular yosh avlodga milliy qadryatlarni anglash , vatanparvarlik , mehnatsevarlik , ota - onaga hurmat , yurtga sadoqat kabi fazilatlar adolat ruhida kamol topdiradi . Bunday musiqiy meros orqali biz madaniy boyligimizni asraymiz , balki kelajak avlodni yuksak insoniylik ruhda tarbiyalaymiz . Xalq qo'shiqlari millatimizning xotirasidir. Undagi har bir satr va har bir nola xalqimizning hayotidan so‘zlaydi . Ma'naviy merosimiz omon ekan , milliy ruhimiz hamisha yuksak bo‘lib qolaveadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov K , Mirzayev T , Sarimsoqov B , Safarov O . O‘zbek xalq og'zaki poetik ijodi - T .. o‘qituvchi , 1990 yil
2. Alaviya M . O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. - T : fan , 1974
3. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari . - T . 1959
4. Sarimsoqov B. Mehnat qo‘shiqlari, o‘zbek folklore ocherklari - T , fan 1988
5. Alaviya M. Lirik qo‘shiqlar, o‘zbek xalq qo'shiqlari. - T , 1959
6. Jumanazarov U . Tarixiy qo‘shiqlar, o‘zbek folklore ocherklari. T , fan .1988
7. Xorazm xalq qo'shiqlaridan namunalar . - T . Fan , 1965
8. Oq olma , qizil olma qo‘shiqlari. - T . Fan , 1972
9. Boychechak, mehnat qo‘shiqlari. - T . Fan , 1984
10. Kelinoy qo‘shiqlari. - T . Fan , 1981.